



## IDEOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF RELIGIOUS TOLERANCE AMONG STUDENTS

**N. A. Samandarova**

*Master's student*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Religious tolerance, Students Ideological foundations, Education, Diversity, Beliefs, Social cohesion, Cultural understanding, Interfaith dialogue, Multiculturalism

**Received:** 23.04.24

**Accepted:** 25.04.24

**Published:** 27.04.24

**Abstract:** This abstract delves into the conceptual and practical foundations of fostering religious tolerance among students. It explores both theoretical frameworks and practical approaches essential for shaping religious tolerance among learners. The discussion encompasses a blend of theoretical underpinnings and innovative strategies, aiming to cultivate a culture of respect, understanding, and acceptance of diverse religious beliefs within educational settings. Through a synthesis of scholarly perspectives and empirical evidence, this abstract elucidates the multifaceted nature of religious tolerance formation, highlighting its significance in promoting social cohesion and harmony.

## O'QUVCHILARDA DINIY TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING MAFKURAVIY VA G'OYAVIY ASOSLARI

**N. A. Samandarova**

*Magistratura talabasi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Diniy bag'rikenglik, Talabalar Mafkuraviy asoslar, Ta'lim, Xilmayillik, E'tiqodlar, Ijtimoiy birdamlik, Madaniy tushunish, Dinlararo muloqot, Multikulturalizm

**Annotatsiya:** Ushbu maqola talabalar o'rtaida diniy bag'rikenglikni rivojlantirishning kontseptual va amaliy asoslarini tahlil qiladi. U o'quvchilarda diniy bag'rikenglikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan nazariy asoslarni va amaliy yondashuvlarni ochib beradi. Muhokama nazariy asoslar va innovatsion strategiyalar aralashmasini o'z ichiga oladi, bu ta'lim muassasalarida turli diniy e'tiqodlarni hurmat qilish, tushunish va

qabul qilish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ilmiy nuqtai nazarlar va empirik dalillarning sintezi orqali ushbu maqola diniy bag'rikenglik shakllanishining ko'p qirrali mohiyatini yoritib beradi, uning ijtimoiy birdamlik va uyg'unlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritadi.

## ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ

**H. A. Самандарова**

*студент магистратуры*

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Религиозная толерантность, Студенты Идеологические основы, Образование, Разнообразие, Убеждения, Социальная сплоченность, Культурное взаимопонимание, Межконфессиональный диалог, Мультикультурализм

**Аннотация:** В данной статье анализируются концептуальные и практические основы развития религиозной толерантности среди студентов. Раскрываются теоретические основы и практические подходы, необходимые для формирования религиозной толерантности у студентов. Обсуждение включает в себя сочетание теоретических основ и инновационных стратегий, направленных на воспитание культуры уважения, понимания и принятия различных религиозных убеждений в образовательных учреждениях. Путем синтеза научных взглядов и эмпирических данных данная статья проливает свет на многогранный характер формирования религиозной толерантности, подчеркивая ее значение в развитии социальной сплоченности и согласия.

### KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ko'p millatli o'zbek xalqining bag'rikenglik madaniyati va insonparvarlik xususiyatlarini rivojlantirish, fuqarolar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlashdan iborat bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda respublikamizda faol «xalq diplomatiysi» asosida chet eldag'i vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar,

O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do‘slik jamiyatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

## ASOSIY QISM

“Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqdalar. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an’analari muhim rol o‘ynamoqda”. Jamiyatimizda yashovchi turli millat va dirlarga e’tiqod qiluvchilarining huquq va manfaatlarini yanada uyg‘unlashtirish, globallashuv sharoitida uning jahon hamjamiatiga erkin kirib borishi, xalqaro ekstremizm, terrorizmning turli shakllaridan muhofaza qilish hamda millatlararo tolerantlikni qaror toptirish dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF4947-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2017 yil 19 maydagi 5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida ustivor vazifa sifatida belgilangan.

Ajdodlarimizning madaniy merosini muntazam ravishda o‘rganish tarix ilmining dolzarb masalasi sifatida e’tiroflidir. Bu borada O‘rta Osiyoning qadimgi tarixini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyo deb atalgan hududiy kenglikda qadimda, aniqrog‘i so‘nggi bronza va temir davrida aholining hayotida tub o‘zgarishlar va rivojlanishlar davri bo‘ldi. So‘nggi bronza va temir davrida bu hududlar kelib chiqishi jihatidan uch xil etnik guruhlarning aloqa maydoniga aylanadi.

Millati va irqi, ijtimoiy darajasi, yoshi va ma`lumotidan qat’iy nazar, mamlakatlar va qit`alarni birlashtirgan madaniyatning birinchi o‘zagi din hisoblanadi. U insoniyat tomonidan to‘plangan hamma narsani o‘ziga singdirdi, uning qahramonlik tarixi asrlar qariga borib taqaladi, ular afsona va rivoyatlarda kelgan, ularning har biri o‘z tilida odamlarning kelib chiqishi va o‘tmish bosqichlari, mehnat hayoti haqidagi fikrlarini aks ettirgan. U iqtisodiy hayot tajribasini va`da qildi va har bir xalqning ijtimoiy ruhini aks ettirdi.

YUqorida qayd qilingan boy ma’naviy merosimiz g‘oyalarining respublikamiz fuqarolari ongiga singdirilishi ko‘p millatli mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minalashga xizmat qiladi, shuningdek, aqidaparastlik va ekstremizm g‘oyalari bilan xalq ongini zaharlashga harakat qilayotgan fitnachi terroristik guruhlarga qarshi kurashda katta g‘oyaviy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan Prezidentimiz SH.M. Mirziyoevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: «Bugungi kunda yon-atrofimizda “diniy ekstremizm”, “terrorizm”, “giyohvandlik”, “odam savdosi”, “noqonuniy migratsiya”, “ommaviy madaniyat” kabi balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada ayon bo‘ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbliji va ahamiyatini

hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda». Mutafakkirlar g‘oyalari ko‘plab millat va elat vakillari hamda turli dinlarga mansub xalqlarga boshpana bergan mamlakatimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Hozirgi globallashuv va integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liq tarzda mamlakatlararo, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarning yanada kengayishi hamda chuqurlashuvi munosabati natijasida mazkur masala yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. “Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma’naviy uyg‘onishning yana bir bitmas-tuganmas manbayidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo‘lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy meyorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an’analarini, shu hududda mavjud bo‘lgan davlatchilik an’analarini avaylab qabul qilganlar. Ayni shu zaminda ko‘p asrlar mobaynida jahon madaniyatları dunyo miqqosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko‘chmanchi xalqlar o‘troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniyalar va yahudiylar bilan ko‘p asrlar birga yashab kelganlar.

Kishilik jamiyati hamisha o‘ziga xos manfaatlarga ega bo‘lgan katta- kichik guruh va qatlamlar hamda voqeа-hodisalarga turlicha yondashuvlarning mavjudligi bilan xarakterlanib kelgan. Manfaatlar va yondashuvlar xilma- xilligi, bir tomondan, ijtimoiy hayotning boyishiga, rivojlanishning oqilona yo‘llarini topishga, ikkinchi tomondan, jamiyat taraqqiyotini izdan chiqargan murosasizlik va toqatsizlikning turli ko‘rinishlari paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Tarix tolerantlik va murosasizlik holatlari jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Bugun dunyo globallashuv, iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari ta’sirida tobora yaxlit va bir butun xarakter kasb etib bormoqda. Kapital va tovarlar oqimi bilan bir qatorda, ularning yaratuvchisi bo‘lgan insonlarning harakat doirasi ham kengayib bormoqda. Bu odamlar orasida o‘zaro murosasizlik, toqatsizlik ko‘rinishlarini bartaraf qilish, jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini qaror toptirish tom ma’noda global, insoniyat istiqboliga daxldor masalaga aylanganini ko‘rsatadi. Jamiyat hayotida tenglik vaadolat g‘oyalarining ustuvor bo‘lishi va amaliyotda o‘z ifodasini topishi ko‘zlangan maqsadlarga erishishga, belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy mo‘ljallarning barcha birdek qadr-qimmat kasb etishiga, fuqarolar o‘rtasida birdamlik va hamjihatlik, o‘zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhi qaror topishiga zamin yaratadi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, ko‘p millatli jamiyat sharoitida davlat oldida turgan dolzarb vazifa ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash, irqiyl, etnik, diniy kamsitilish va boshqa ijtimoiy hodisalarga qarshi turish qobiliyatini

shakllantirishdan hamda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli dinlar vakillari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bu sohadagi faoliyat izchil rivojlantirish, o‘quvchilarimiz ongiga tolerantlik, muruvvat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, bilim orttirishga intilish va madaniy merosni asrab avaylashga bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Sh. M.Mirziyoev. «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi» mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 15.06.2017. №7.(3456).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagisi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947-son farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 5046-son farmoni.
4. R.Murtazaeva“O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik” Toshkent-2019.